

DALA SHAROITIDA O‘TKIR BARGLI SANNO O‘SIMLIGINI YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYASI.

Begmatov Abdusamat Mamatqulovich - Termiz davlat universiteti, dotsent.

Termiz, Uzbekistan

Annotatsiya. Maqolada Sano shifobaxsh o‘simligining o‘shish sharoitlari, fiziologik, anatomik-morfologik xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Cassia, sezaljindoshlar oilasi, sho‘rxok yerlar, tuproq namligi, transpiratsiya, randomizatsiya

Абстракт. В статье приведены сведения об условиях произрастания, физиологических, анатомо - морфологических характеристиках лекарственного растения Сано.

Ключевые слова: Кассия, семейство осоковые, засоленные почвы, влажность почвы, транспирация, рандомизация.

AGROTECHNOLOGY OF CULTIVATION OF SHARP LEAF PLANT IN FIELD CONDITIONS.

Begmatov Abdusamat Mamatkulovich - Termiz State University, dotsent.

Termiz, Uzbekistan

Abstract. The article provides information about the growth conditions, physiological, anatomical and morphological characteristics of the medicinal plant Sano.

Key words: Cassia, sedge family, saline soils, soil moisture, transpiration, randomization

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori¹ qabul qilindi. Ушбу қарорда 50 турдаги доривор ўсимликларни ўстириш ва хомашё

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4670-son qarori

олиш бўйича таклифлар берилган бўлиб, unda o'tkir bargli sano (*senna anguslifolia* del.) o'simligini yetishtirish bo'yich ma'lumotlar keltirilgan.

Respublikada so'nggi yillarda dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o'simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mahalliy floraга mansub 4,3 mingdan ortiq o'simliklarning 750 ta turi dorivor hisoblanib, ulardan 112 ta turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro'yhatga olingan, shundan 70 ta turi farmasevtika sanoatida faol qo'llanib kelinmoqda. 2019-yilda 48 mln AQSh dollari qiymatidagi qayta ishlangan dorivor o'simliklardan olingan mahsulotlar eksport qilingan.

Shu bilan birga, tahlillar dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, ularning plantatsiyalarini tashkil etish, qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish zarurligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-251-son qarorida dorivor o'simliklar bozori konyunkturasini o'rganishni tashkillashtirish, aholi va sog'liqni saqlash muassasalarining dorivor o'simliklar mahsulotlari bilan ta'minlanganlik holatini tizimli tahlil qilish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va dorivor o'simliklar va ulardan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tibbiy ahamiyati hamda ularni qo'llashga oid maxsus ko'rsatuvlar va roliklarni muntazam namoyish etilishini tashkil qilish, dorivor o'simliklarga oid ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishda ko'maklashish, dorivor o'simlikshunoslik tarmog'iga ilg'or xorijiy amaliyot va xalqaro standartlarni tatbiq etish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish, dorivor o'simliklar mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar talabini tahlil qilgan holda

har yili Qishloq xo'jaligi vazirligiga dorivor o'simliklar yetishtirish hajmlari to'g'risida taklif kiritish vazifasi berilgan.

Dorivor o'simliklar xom ashyosini tayyorlash asosan O'zbekiston Respublikasining Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining O'rmon xo'jaligi Bosh boshqarmasi qoshidagi "Shifobaxsh" ishlab chiqarish birlashmasiga, dehqon va fermer xo'jaliklariga farmqo'mita tarkibiga kirgan farmasevtika korxonalariga

Respublikamizda sug'oriladigan yerlarda dorivor o'simliklarni yetishtirish uchun Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Namangan viloyatlarida maxsus xo'jaliklar tashkil qilingan.

Shunday o'simliklardan biri o'tkir bargli sanno - *Senna angustifolia* Del. o'simligi butun dunyo xalqlari orasida xalq tabobatida dorivor o'simlik sifatida keng foydalanib kelinmoqda.

O'tkir bargli sanno yarim bo'ta o'simligi bo'lib, asosan urug'idan ko'paytiriladi. O'simlikni ekishdan oldin yerni kuzda 25-28 sm qilib haydaladi. Haydashdan oldin gektariga 20-25 tonna go'ng va 50 kg (sof xolda) dan superfosfat o'g'iti beriladi, va obi tobiga yetishi uchun qishki tinim davrini o'taydiyu Tajriba tizim bo'yichaerta baxorda yer tekislab barona qilinadi. Tajriba tizim bo'yicha baxorda sannoni urug'idan ekish variantlari bo'lganligi uchun 22aprel kuni qator orasi 60 sm bo'lgan egatlar olindi va pushtalarga urug'lar ekildi.

Sanno o'simligi urug'idan ko'payadi. 1000 dona urug' vazni 25-35 gr. Unib chiqish qobiliyati 80-95 %, ammo vaqt o'tgan sari unuvchanligi pasayib boradi. Yaxshi pishib yetilmagan urug'lar tez unuvchanligini yo'qotadi.

Sanno urug'i unib chiqishi uchun havo harorati 18-20⁰S ni tashkil etishi kerak. Urug'lar ekilgandan so'ng 6-20 kunda unib chiqadi. Unib chiqqan o'simliklar juda ham sekin o'sadi va rivojlanadi. G'unchalash o'simlik unib chiqqanidan 2,5-3 oydan so'ng kuzatiladi. Vegetatsiya davri dastlabki sovuqqacha (-1⁰S) davom etadi. Lekin bunday sovuqqacha qolgan xom-ashyo: barg va urug' o'zining sifatini yo'qotadi.

Sanno o'simligi yengil va o'rtacha og'irlikdagi unumdor tuproqlarda yaxshi o'sib rivojlanadi. Namlik yuqori va aeratsiyasi yomon bo'lgan tuproqlarga ekish tavsiya etilmaydi. Chunki ildiz sistemasi yaxshi rivojlanmaydi va zamburug' kasalliklariga tez chalinadi. Shuning uchun sanno o'simligi ekiladigan joy tashlama tizimi chuqur (1,2-1,5 m) bo'lishi, sizot suvlari kamida 1,2-1,8 chuqurlikda bo'lishi talab etiladi.

Sanno o'simligi ekishdan oldin issiq suvda (30^oS) 6-8 soat ivitiladi. Ivigan urug'lar ekish uchun yaroqli hisoblanadi. Ivimagan urug'larni qumga aralastirib 30 minut davomida urug' po'sti shikastlantiriladi. Buning uchun qumga aralashgan urug' tekis taxta yoki polga yoyilib qattiq buyum yoki brezent qo'lqop bilan ishqalanadi. So'ngra issiq suvda (30^o) 8-10 soat ivitiladi, ushbu vaqt mobaynida issiq suv 2 marta almashtiriladi. Ivitilayotganda urug'lar qopning 1/3 qismigacha solinishi kerak.

Urug'lar ivitiligidan so'ng oqava suvda 2-3 kun qoldiriladi. Urug'larning unishi boshlanishi bilanoq darhol ekishga kirishiladi. Bizning sharoitda ekish muddati aprel oyining ikkinchi yarmidan, tuproq yaxshi qizib olgandan so'ng, 10-15 kun hisoblanadi. Eng kechki muddat may oyining 5-10 kunlari hisoblanadi. Maydonning katta kichikligiga qarab qo'l kuchi va seyalka yordamida ekiladi. Urug' ekishdan oldin quritiladi. Agar urug' seyalkada (g'o'za chigiti ekadigan) ekilsa, gektar hisobiga 8 kg sarflanadi. Urug'lar 2-3 sm chuqurlikda ekiladi. Urug'larning unuvchanligi 56-60% ni tashkil etadi. Qator oralig'i sug'oriladigan yerlarda 60-70 sm, lalmi yerlarda 50-60 sm. Ekilgandan so'ng zudlik bilan zaxlatib sug'oriladi.

Nihollarning unib chiqishi 5-6 kunda boshlanadi. Agar unib chiqish kechiksa, qayta sug'oriladi. Unib chiqqan maysalar ikkinchi chinbarg chiqargandan so'ng, 20-25 sm.da har bir uyada 2-3 donadan qilib yagona qilinadi. Ikkinchi yagonada 10-15 kundan so'ng 40-50 sm.da bittadan o'simlik qoldiriladi. Yagona qilish bilan bir vaqtda, qator oralari yumshatiladi. Tuproqni zichlashuviga

olib keladigan har bir tadbirdan so'ng, qator oralarini 8-12 sm chuqurlikda yumshatiladi. Sug'oriladigan joylarda kamida 5 marta kultivatsiya qilinadi.

Ikki marta mineral o'g'itlar bilan oziqlantiriladi. Birinchi oziqlantirishda - shoxlanish boshlanganda gektar hisobiga 30 kg azotli, 20 kg fosforli o'g'itlar solinadi. Ikkinchi oziqlantirishda - gullash boshlanganda, gektar hisobiga 20 kg azotli, 30 kg fosforli o'g'itlar solinadi. Sanno o'simligidan barg xom-ashyosini olish uchun 7-8 marta sug'orilsa, urug' olish uchun 5-6 marta sug'orish maqsadga muvofiq.

Sano o'simligi bargidan xom-ashyo tayyorlanadigan maydonlarda chekanka ishlari olib boriladi. Chekanka har 15-20 kunda olib borilib o'simlikni gullashga qo'yilmaydi. Har bir chekanka 1-2 kundan oshmasligi kerak.

Sanodandan yuqori hosil yetishtirish uchun erta bahorda tuproqning yuqori qatlamini urug' yaxshi ko'miladigan, normal unib chiqishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladigan qilib yumshatish, havoalmashinishini yaxshilash, pastki qatlamlardan uruqqa nam kelishini ta'minlash va begona o'tlarni yo'qotishga qaratish kerak bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Amonturdiyev Q, Xoliqov Q. Makkaisano (cassia)ni bioekologik xususiyatlari. Janubiy O'zbekiston xomashyobop o'simliklarini o'rganish. Termiz, 2003. 5-6 bet.
2. Amonturdiyev Q, Mamanazarov R. Makkaisanoni ahamiyati. Janubiy O'zbekiston xomashyobop o'simliklarini o'rganish. Termiz, 2003. 3-4 bet
3. Ashurmetov O.A., Karshibaev X.K. Reproduktivnaya biologiya solodki i razdelnolodochnika. – Tashkent, Fan, 1995. – 212 s.
4. Ashurmetov O. A., Qarshiboev X. Q., Qo'ziev Shirinmiya (foydali xususiyatlari, bioekologiyasi va ko'paytirish usullari). – Toshkent: Guliston DU bosmaxonasi, 2005. – 99 b.
5. Ashurmetov O.A. Metodika izucheniya semennoy produktivnosti rasteniy na primere vidov roda *Glycyrrhiza* L. // Uvelichenie kormoproizvodstva

na nauchnoy osnove: Tez. dokl. Resp. nauch. konf. – Tashkent, 1982. – S. 50-52.

6. Begmatov A.M., Toshboev E.E. Acute deciduous thanks giving (senna angustifolia Del.) bioecology and medicinal properties. International Journal of Advanced Research in Management and Social Sciences. Amerika. 2022-yil, 208-214 bet.

7. Berdiev E.T., Axmedov E.T. Tabiiy dorivor o‘simliklar (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent, O‘zR FA Minitipografiyasi, 2018. - 188 bet.